

XIZMAT FAOLIYATIGA MOSLASHUV JARAYONIDA HARBIY OILALARDA NIZOLAR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOSOTSIAL OMILLARI

Olimova Barchin

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini
tarbiyaviy-psixologik ta‘minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar odatiy turmush tarzi, ahloqiy qadriyat yo‘nalishlarining o‘zgarishiga, bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga olib kelayotgan bir pallada, globallashuv natijasida harbiy-siyosiy vaziyat keskin o‘zgarib, xavfsizlik sohasida xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotganligi hozirgi murakkab davrda harbiy xizmatchilarning jangovar topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishi, xizmat majburiyatlarini ijro etishda psixologik xususiyatlarini namoyon bo‘lishini, shuningdek muvaffaqiyatli harbiy burchni ado etishda harbiylarga bevosita “richag” bo‘ladigan harbiylar oilasining psixologik holati, turmush tarzi, ekstremal sharoitlarga moslashuvini tadqiq etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so‘zlar: moslashuv, tutilish, harbiy oila, nizo, er-xotin, psixologik kontakt, destruktiv, konstruktiv.

Dunyoda harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish, harbiylik kasbiga nisbatan psixologik yaroqlilik, harbiylar va ularning oila a‘zolari o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar, harbiy oilada voyaga yetayotgan bolalarning psixologik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jahonda oilaviy nizolar, ajrimlarning soni ortib borayotgan bir davrda harbiy oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, oilaviy rollarning taqsimlanishi, harbiylarning noodatiy, intizomga asoslangan turmush tarzida oilaviy iqlimning barqaror bo‘lish darajasining harbiy xizmatchi faoliyatiga ta‘siri kabi masalalar o‘z dolzarbligini oshirmoqda.

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlaridagi o'zgarishlarning asosiy maqsadi hozirgi bosqichda harbiy burchni to'liq fidoyilik bilan bajarishga va xizmat jarayonida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan xodimlarni ta'minlashdir. Buning uchun harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini, salomatligini, hayotiy farovonligini yuqori darajada saqlash, o'z salohiyatini ro'yobga chiqaradigan yetuk shaxsni kamol toptirish zarur. Harbiy xizmatchining ruhiy salomatligi, farovonligi va kasbiy uzoq umr ko'rishini ta'minlashda oila yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Oilaviy munosabatlar sifatiga nafaqat harbiy xizmatchilarning shaxsiy holati, balki ularning xizmat vazifalarini bajarishiga ham bog'liq. Harbiy oilaning resurslari harbiy xizmatchilarning shaxsiy resurslari bilan bir qatorda harbiy qismlarning jangovar qobiliyatini saqlashga jalb qilinadi.

Harbiy xizmatchilarning turmush tarzini mustakamlashda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish, ilmiy tadqiqot ishlariga qo'yilgan talablardan biri hisoblanadi. Biroq, barcha xorijiy davlatlarning harbiy oilalaridagi muammolari bo'yicha tajribasini o'rganishning iloji yo'q va bu ish bizning tadqiqot vazifamizga kirmaydi. Shuning uchun ba'zi davlatlarning harbiy xizmatchilari oilalarida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarni hal etish borasidagi tajribasini o'rganishga harakat qildik.

Armiyaning tarkibiy qismidan kelib chiqib harbiy oilalar sonining ko'payishini nazarda tutadi, bu esa tegishli muammolarning ko'payishiga olib keladi. Shu munosabat bilan jahon olimlari tomonidan harbiy xizmatchilarning oilasi mudofaa qobiliyatini ta'minlash muammolarini hal qilishda birinchi raqamli tadqiqot ob'ektiga aylangan. Harbiy xizmatchilarning psixologik salomatligi va farovonligi mamlakat armiyasining samaradorligi, harbiy oilalarni moslashtirish va harbiy xizmatchilarning fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashuvi uchun muhimdir.

AQSh olimlari C.Hyperlink va A.Robertlar tomonidan harbiy xizmat natijasida ko'plab stresli omillarning harbiy oilalardagi bolalarning ruhiy salomatligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muammolari o'rganilgan. Tadqiqot natijalarida Iroq va Afg'onistonda bo'lib o'tgan urushlarda ishtirok etgan 1,3 milliondan ortiq harbiy

xizmatchilarning (2014 yil holatiga ko'ra) 55 foizi turmush qurgan va ulardan 42 foizi farzandli bo'lganligi keltirib o'tilgan. Urish davrida oilalarning ko'chib yurishi bolalarning ruhiy salomatligiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ular bolalarning yoshi va rivojlanish bosqichiga qarab farqlangan. Tadqiqot 1507 nafar harbiy oilalardagi bolalar va tarbiyachilardan olingan ma'lumotlar natijasida ota-onasi uzoq muddatli harbiy xizmatga ketgan bolalarda tengdoshlariga nisbatan ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolar kuzatilgan. Shu bilan birga harbiy oilalarni joylashtirish va boshqa xayot qiyinchiliklariga qaramasdan bardoshlilikini harbiy sharoitga moslashuvchan oila faoliyatining potensial rolini rag'batlantirish va qo'llab quvvatlovchi tadbirlarni ishlab chiqish muhimligi ko'rsatib o'tilgan.

2022-yilda M.Anatolii, V.Serxii, M.Aleksandr, I.Vladimir, S.Vladimir va V.Aleksandirlar tomonidan (Ukraina Milliy gvardiyasi, milliy akademiyasi) jangovar vazifalarni bajarayotgan Ukraina harbiy xizmatchilari oilalariga yordam berishning tibbiy, ijtimoiy va psixologik jihatlari o'rganilgan.

Harbiy harakatlardan qaydgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy moslashuvi, muloqotdagi qiyinchiliklar, intim hayotdagi qiyinchiliklar, kasbiy o'zini-o'zi belgilash muammolari bilan bog'liq yangi stresslarni boshidan kechirish, bundan tashqari jangovar harakatlar vaqtida orttirgan psixologik travmalar sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatishi, buning natijasida oilada tushunmovchilik, janjallar kelib chiqishi, oila a'zolarida ham uyqu buzilishi, tushkunlik, kayfiyatning o'zgarishi, begonalashish holatlari kuzatilishi taxlil qilingan.

Ukraina psixiatrlarining ta'kidlashicha harbiy harakatlarda ishtirok etgan harbiy xizmatchilarning 20 foizida "ATO sindiromi" deb ataladigan surunkali travmadan keyingi stress buzilishi (PTSD) tashxisi qo'yilgan. Ushbu holatlarni o'rganish natijasida olimlar tomonidan quyidagi xulosalar keltirib o'tilgan:

Reabilitatsiya faoliyatini takomillashtirish uchun olimlar, metodistlar, shifokorlar, ijtimoiy soha xodimlari, davlat organlari mutaxassislari, shuningdek fuqaro-harbiy

hamkorlik mutaxassislari ishtirokida harbiy xizmatchilarning oilasi va yaqinlarini qamrab oluvchi kompleks rehabilitatsiya tadbirlarini tizimli tashkil etish.

2. Jangovar harakatlarda ishtirok etgan harbiy xizmatchilarning oilalariga yordam ko'rsatishning tibbiy-ijtimoiy va psixologik jihatlarini o'rganish va Ukraina tomonidan harbiy xizmatchilarning oilalariga psixologik yordam ko'rsatishni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish.

So'ngi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki nafaqat harbiy xizmatchining, balki uning ota-onasi, rafiqasi, farzandlari va yaqin qarindoshlariga ham tibbiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish zarur.

Psixologik yordam va rehabilitatsiyaning umumiy jihatlarini T.Dobrovolskaya, S.Xarchenko, L.Yakovlevalarning asarlarida keltirib o'tilgan. Harbiy xizmatchilar bilan rehabilitatsiya ishlarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari V.Aleshchenko, V.Mogilevlar tomonidan tahlil qilingan. V.Bondarenko, D.Kramerlar tomonidan harbiy xizmatchilarning oilalariga ijtimoiy yordam ko'rsatishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganilgan

Jahon olimlari tomonidan harbiy oilalardagi nizolar tadqiq etilganda ota-onalarning ayrim individual xususiyatlari va oiladagi nikoh munosabatlarda yuzaga kelayotgan nizolar ajrashishlarning eng muhim manbai ekanligi aniqlangan.

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent L.B.Morozova Rossiyaning fuqaro oilalari va harbiy xizmatchi oilalarida er-xotinning oiladagi shaxslararo o'zaro munosabatlar va oilaviy munosabatlardan qoniqish bo'yicha ilmiy izlanishlarni olib borgan. Tadqiqot natijalarida nikohdan qoniqish oilaning sub'ektiv g'oyasini amalga oshirishga va oilaviy hayotdan qoniqish har bir shaxsning barcha ehtiyojlarini qondirish darajasiga bog'liq bo'lgan, bu o'z navbatida ijtimoiy his-tuyg'ularning rovojlanishiga qaratilgan. Nikohdan qoniqish omillari etib: turmush o'rtog'ining kasbiy faoliyatidan kelib chiqib ishdan qoniqish, ishdagi muvaffaqiyat, insonning o'zini-o'zi anglashi va oilaning moliyaviy farovonligi keltirib o'tilgan.

Hozirgi kunga kelib harbiy oilalarda nizolar paydo bo'lishi harbiy xizmatchilarning oilaviy hayotidagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, harbiy xizmatchi oilasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyati kabi muammolarni vujudga keltirmoqda. I.Yu.Zagornaya harbiy xizmatchilar oilalarining ijtimoiy-psixologik moslashuvini o'rganar ekan, u oilaviy funksiyalarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan bir qator omillarni aniqladi. Ular orasida:

harbiy xizmatchining xizmat joyini tez-tez o'zgarishi bilan takroriy ijtimoiy-psixologik moslashish omillariga moyillik;

harbiy xizmatchilar oilasini tartibga solish;

harbiy xizmatning alohida shartlari tufayli oilaviy hayotdagi muammolarning yuzaga kelishi;

turmush o'rtog'ining oilaviy qadriyatlari va oilada sog'lom muhitni yaratishga qodir yoki aksincha shaxsiy fazilatlari;

harbiy xizmatchi oilasining ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-madaniy aloqalarining muntazam tanqisligi (chekka garnizonlarda, harbiy qismlarda, qishloq aholi punktlarida yashashi) keltirib o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-semi-voennosluzhashego-i-problema-obespecheniya-boegotovnosti-vooruzhennyh-sil>.
2. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7163866/>,
3. R.E.Heyman, P.H.Neidig, AQSH armiyasi va fuqarolik vaqillarining namunalariida turmush urtoqlarining tajovuzkorligini tarqaliш kursatkiqlarini taqqoslash, 1999; 67:239 –242.
4. I.I.Prykhodko, S.V.Bielai, A.M.Hrynzovskyi, A.M.Jelaho, S.O.Hodlevskyi, S.I.Kalashchenko, Xarbiy xizmatчиларнинг экстремал шароитларда мослашуви ва хавфсизлигининг тиббий-психологик жиҳатлари, Wiad Lek . 2020;73(4): 679.
5. <https://wiadlek.pl/wp-content/uploads/archive/2022/01/WLek202201228.pdf>.